

RIZOUDDIN IBN FAXRIDDIN ILMIY MEROSI TARIXNAVISLIGI

Annotatsiya. *Rizouddin ibn Faxriddin XIX asr oxiri XX asr boshlarida ma'rifatparvarlik harakatining yorqin namoyondalaridan biri edi. Rizouddin ibn Faxriddin o'zidan 14 ta qo'lyozma va 70 ta toshbosma asarlar hamda 410 dan ortiq maqolalar yozib qoldirib, XX asr ilm-fan taraqqiyotiga, xususan, ijtimoiy fanlar rivojiga ulkan xissa qo'shdi. Olimning ilmiy merosi haqida XX asrning 60-yillaridan keyin yozila va o'rganila boshlandi. Rizouddin ilmiy merosi bugungi kunga qadar, ko'plab olimlar diqqat markazida bo'ldi. Mazkur maqolada, Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosining o'rganilishi va tarixnavislighi bir necha guruhlariga bo'linib tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Rizouddin ibn Faxriddin, Omer Hakan O'zlab, Mehmet Hayri Qirboshio'g'li, Bo'gelme, Kichuchat, "Mutolaa", "Tanzimat", "Ismoil sayohati", "Ibn Rushd".*

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ РИЗУДДИНА ИБН ФАХРИДДИНА

Аннотация. *Ризауддин ибн Фахриддин был одним из ярчайших представителей движения Просвещения конца XIX — начала XX вв. Ризауддин ибн Фахриддин оставил после себя 14 рукописей и 70 литографических работ и более 410 статей, внеся огромный вклад в развитие науки XX в., в частности в развитие общественных наук. Научное наследие ученого стало писать и изучаться после 60-х годов XX в. Научное наследие Ризауддина и по сей день находится в центре внимания многих ученых. В данной статье анализируется изучение и историография научного наследия Ризауддина ибн Фахриддина, разделенные на несколько групп.*

Ключевые слова: *Ризауддин ибн Фахриддин, Омер Хакан Озлаб, Мехмет Хайри Кирбашиоглу, Богельме, Кичучат, «Мутолаа», «Танзимат», «Путешествие Исмала», «Ибн Рушд».*

HISTORIFIC ANALYSIS OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF RIZOUDDIN IBN FAKHRIDDIN

Annotation. *Rizauddin ibn Fakhriddin was one of the brightest representatives of the Enlightenment movement in the late 19th and early 20th centuries. Rizauddin ibn Fakhriddin left behind 14 manuscripts and 70 lithographic works and more than 410 articles, making a huge contribution to the development of science in the 20th century, in particular to the development of social sciences. The scientific heritage of the scientist began to be written and studied after the 60s of the 20th century. Rizauddin's scientific heritage has been the focus of attention of many scientists to this day. In this article, the study and historiography of the scientific heritage of Rizauddin ibn Fakhriddin are analyzed, divided into several groups.*

Keywords: *Rizauddin ibn Fakhriddin, Omer Hakan Ozlab, Mehmet Hayri Kirbashioglu, Bogelme, Kichuchat, "Mutolaa", "Tanzimat", "Ismail's Journey", "Ibn Rushd".*

Kirish. *Rizouddin ibn Faxriddin shaxsiyati va ilmiy-ijodiy faoliyati keng miqyosli bo'lib, u bir vaqtning o'zida tarixchi, manbashunos, islomiy ilmlar bilimdoni, pedagog, tarjimon va faylasuf olim sifatida namoyon bo'ladi. Rizouddin ibn Faxriddin 1858-yilda Tataristonning Bo'gelme viloyati Kichuchat ovulida dunyoga kelgan. U qoldirgan ilmiy meros diniy va dunyoviy*

- 16 masalalarni o'z ichiga qamrab olgani hamda davlat va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritib bergani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosini o'rganishning tarixshunoslik asoslarini tadqiq etishda, asosan, uch yo'nalishdagi manba va adabiyotlarga tayanish mumkin. Bular:

Birinchisi – tatar tilidagi adabiyotlar va manbalar;

Ikkinchisi – turk olimlarining tadqiqoti va ilmiy maqolalari;

Uchinchisi – yurtimiz olimlarining ilmiy ishlari.

Asosiy qism. Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosi doirasida dastlabki tadqiqot ishini amalga oshirgan asli tataristonlik, lekin Turkiyada qalam tebratgan olimlardan biri Abdulloh Battal Taymas (vaf. 1963) bo'lgan. U Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy ijodiga ijobiy baho bergan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Abdulloh Battal Taymas o'zining "Kazanli turk meshhurlerindan Rizouddin Faxriddin o'g'lu" [1:254] nomli asarida olimning tug'ilishi, ta'lim-yillari, diniy qarashlari, Ufadagi muharrirlik faoliyati, olimning Orenburg davri, asarlari, tarixnavisligi, kitob yozish uslubi, shaxsi, ijtimoiy axloqi va hayotining so'ngi-yillari haqida ma'lumotlar bergan. Abdulloh Battal Taymas Rizouddin ibn Faxriddin haqida asar yozib, olimning shaxsiyati va ijtimoiy, ilmiy faolligini keng qamrovli tarzda ochib bergani bilan ajralib turadi. Abdulloh Battal Taymas Rizouddinning tarixiy-biografik asarlari va turklar tarixi haqidagi maqolalarini o'z tadqiqotida alohida to'xtalib o'tgani bilan uning ilmiy ishi tarixiy yondashuvi sifatida namoyon bo'ldi [1:258].

Ismoil Turko'g'lining "Rizouddin Faxriddin va turk kimlig'i" nomli maqolasida ham Rizouddinning turklardan kelib chiqishi borasidagi nazariyalariga tayanadi. Ushbu maqolada turklar asli kimligi va tatarlar ham turklarning bir bo'lagi ekani ochib berilgan. Ismoil Turk o'g'li "Sho'ro" jurnalining 1910-yil 23-sonidagi "Biz tatar emasmiz, biz turkmiz" nomli muallifi ko'rsatilmagan maqolani tahlil qilib va ushbu maqola Rizouddinga tegishliligini aniqlagan. Shuningdek, Ismoil Turk o'g'li Rizouddin ibn Faxriddin tatar nomini yoqtirmasligi o'zini turk deb bilishi va bu boradagi fikrlarini Chingizxon hamda Amir Temur faoliyatiga oid maqolalari orqali yoritib bergan [2:12-22].

Yana bir turk tadqiqotchilaridan biri Doktor Alpar Alpning "Rizouddin Faxriddinning tarixchiligi" deb atalgan maqolasida Rizouddin ibn Faxriddinning ilmiy faoliyatidagi tarixchilik salohiyatini ochib bergan. Alpar Alp olimni jadidchi sifatida tanitib, olimning arab, fors va rus tillarini puxta bilgani, manbashunos sifatida kitoblardan erkin foydalana olishini yozgan. Muallif uning tarixchi sifatida shakllanishida ayniqsa, Ufadagi muftiylik faoliyati muhimligini ta'kidlaydi. Shu bilan bir qatorda, Alpar Alp: "Rizouddin 1900-yilda "Asar" nomli kitobini yozishni boshladi. U mintaqadagi turk-tatar xalqlari tarixiga oid biografik va bibliografik ensiklopediyadir. "Asar" 1908-yilga qadar o'n besh faslda ikki jild holida nashr etilgan. Ularda Bulg'arlar davridan – XX asr boshlarigacha Rossiyadagi mashhur musulmon allomalari, shaxslarning hayoti va faoliyati haqida so'z boradi. Kitobning birinchi jildida 666 kishi haqida ma'lumot mavjud. Ikkinchi jildida 1009 kishining hayoti yoritilgan. Manba jami to'rt jild bo'lsa-da, qolgan ikki jildi uning hayoti davomida nashr etilmagan. Bundan tashqari, Ufadagi faoliyati davomida "Mutolaa", "Tanzimat", "Ismoil sayohati", "Ibn Rushd" kabi tarixiy asarlar yaratgan" [3:23-36] deb yozgan.

Rizouddin ibn Faxriddinning ilmiy merosi, xususan, uning "Din va ijtimoiy masalalar" asari haqida ma'lumot bergan turk olimlaridan biri Omar Haqan Ozlapdir. U "Rizouddin ibn Faxriddinning Din va ijtimoiy masalalar kitobi" [4:199-234] nomli maqolasida mazkur kitobning manbashunoslik tahlilini amalga oshirgan. Ushbu kitobni o'rgangan yana bir turk olimi Rajap Chelikdir. U "Rossiyada jadidchilik harakati va Rizouddin ibn Faxriddin fiqhni tushunishi" deb nomlangan monografiyasida olimning fiqhiy kitoblari qatorida yuqoridagi kitobini ham zikr qilib o'tgan [5:186].

Metin Demirchim "Idil-Ural mintaqasi musulmonlarining mashhur muftiysi Rizouddin ibn Faxriddinning adabiy asarlari tili" nomli kitobida olim ilmiy merosini lingvistik nuqtai nazardan o'rgangan. Shuningdek, Metin Demirchim olimning asarlaridagi so'zlarni mazmunidan kelib chiqqan holda bir necha guruhlarga: ta'lim, tarbiya, tafakkur va axloq; insonning sezgi a'zolari bilan bog'liq lug'atlar; turli xil his-tuyg'ularni ifodalovchi so'zlar; adabiy sohaga oid va diniy soha

bilan bog'liq kalimalarga bo'lib, tasniflagan [6:37-130]. Ushbu kitobda muallif olimning so'z boyligi hamda badiiy uslubini tasniflash orqali uning merosini filologik uslubda ochib bergan.

Mehmet Hayri Qirboshio'g'li "Rizouddin ibn Faxriddin aql bilan qalbni birlashtirgan olim" nomli maqolasida olimning fanlarga bo'lgan munosabati, ta'lim berishdagi usullari, olimning dars kitoblari, gnoseologik qarashlari, asarlarni yozishdagi metodologiyasi, manbalar bilan ishlash uslubi, tanqidiy yondashuvi va mulohazalari haqida aytib o'tgan. Ya'ni, Rizouddin ibn Faxriddin musulmonlarni bid'at va xurofotlardan xoli bo'lgan sof islomga qaytish, Qur'oni karim va sunnatni mahkam tutgan holda, diniy va dunyoviy bilimlarni teng o'rganishga undaganini ochib bergan [7:131-174].

Hadis sohasida katta tadqiqotlar olib borgan professor Bunyamin Erul "Rizouddin ibn Faxriddin (1859-1936) hadis tafsiri" deb nomlangan maqolasida Rizouddin ibn Faxriddinning ilmiy ijodi haqida muhim ma'lumotlar berib o'tgan. Bunyamin Erul ta'kidlaganidek, olimdan juda katta ilmiy meros; 14 ta qo'lyozma va 70 ta toshbosma asarlar hamda 410 dan ortiq maqolalar qolgan. Bundan tashqari, Bunyamin Erul Rizouddin ibn Faxriddinning hadis sohasiga oid asarlarini sanab o'tgan va olimning hadis germeneytikasi haqida bahs yuritgan [8:198].

Istanbul madaniyat universiteti professori Turgay Anar "Rizouddin ibn Faxriddinning "Xojai avval" Midhat afandi bilan qiziqishi sabablari" deb atalgan ilmiy maqolasining kirish qismida olimning hayoti va ilmiy merosiga to'xtalib, Rizouddinning Ahmad Midhat (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiyada yashab ijod qilgan adabiyot yozuvchisi) haqida yozgan biografiyasini tahlil qiladi. Shu bilan birgalikda, muallif matnda olim bilan Ahmad Midhat dunyoqarashlari o'rtasidagi o'xshashliklar va xalq dardini anglashi borasidagi qarashlari haqida aytib o'tgan [9:248].

Takirdag' Namik Kamal universiteti doktori O'zkan O'zturk "Idil-Ural olimlaridan Rizouddin ibn Faxriddinning Ibn Arabiyga bahosi" nomli maqolasining avvalida Rizouddin ibn Faxriddinning yashagan davrdagi islohotchilik harakati va uning gazetalardagi faoliyatini yoritib o'tgan. Muallif olimning Ibn Arabiyga bo'lgan munosabatini tahlil qilar ekan, uning tasavvufiy bilimlariga yuksak baho beradi. Shuningdek, O'zkan O'zturk Rizouddinning Ibn Arabiy qalamiga mansub asarlari tahlili, fiqhiy tushunchalari, islomiy bilimlari, tasavvufiy qarashlari haqidagi fikrlarini boshqa manbalar bilan solishtirgan holda qiyosiy o'rgangan. Bundan tashqari, maqolada Rizouddin Ibn Arabiyga nafaqat islom olimi, balki faylasuf sifatida baho bergani ham eng e'tiborli jihatlardan biri sifatida tadqiq qilingan [10: 657-700].

Marat Kashafutdinov "Rizouddin ibn Faxriddinning hadis sharhchiligi" nomli ishida Rizouddin ibn Faxriddinning hadis ilmida tutgan o'rni va hadislarni sharhlashdagi o'ziga xos uslublarini yoritgan. Marat Kashafutdinov olimning "Javome al-kalim" asarini tadqiqot obyekti sifatida olib, hadislarning sharhlanishini va bid'atchilarga qarshi ularni qo'llanilishi kabi masalalarni zikr qilib o'tgan [11:126].

Anqara universiteti magistranti Ilyas Miftaxov "XX asrda Qozon xonligida tarix yozuvchiligi" nomli magistrlik dissertatsiyasida Qozon xonligi paydo bo'lishi tarixi va XX asrda tarixiy asarlar yozgan olimlar qatorida Rizouddin ibn Faxriddinning hayoti hamda asarlarini alohida bob sifatida tadqiq qilgan [12:134].

Bugungi kunda, ba'zi turk tadqiqotchilari Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosini o'rganishda va tahlil qilishda tarixshunoslik sohasida noan'anaviy bo'lgan empirik metoddan foydalanmoqdalar. Ularning tadqiqotlarida Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosiga bir tarafdin jadid sifatida, ikkinchi tomondan islom ulamosi sifatida qarash sezilib turadi. Shunga qaramasdan, turk tadqiqotchilarining ko'pchiligi Rizouddin ibn Faxriddin ijodiy merosini va uning islom ilmlariga oid asarlarini o'rganishda turkumlashgan va biografik nuqtai nazardan yondashish lozimligini ta'kidlashgan. Shu bilan birgalikda, olimning hadis sohasidagi faoliyati va "Kutubi sitta va mualliflari" asari turk ilmiy doiralari haligacha tadqiq qilinmagani dissertatsiya mavzusi hozirda zarurat ekanligini anglatadi.

Rizouddin ibn Faxriddin Tatariston hududida tug'ilganligi sababli, tatar olimlari uning ilmiy ijodini qadrlab turli xil yo'nalishlarda tadqiqotlar olib bormoqdalar. Sotsiologiya fanlari professori T.E.Petrova, filologiya fanlari professori R.R. Zamaletdinov, siyosiy fanlar professori

- 18 R.M.Muxametshin “Volga-Ural mintaqasida musulmon tafakkur tarixi” deb nomlangan o‘quv qo‘llanma beshinchi bobining avvalida Rizouddin ibn Faxriddinning biografiyasiga bag‘ishlangan. Shu bilan birgalikda olimning ma‘rifatparvarlik g‘oyalari manbalari, diniy-marifiy asarlari va ularda ko‘tarilgan masalalar, olimning islohotchilik hamda tarbiyaviy qarashlari tadqiqotga jalb etilgan [13:78].

Tarix fanlari nomzodi Baybulatova Liliya Faritovanning “R.Faxriddinning “Asar” bibliografik kodining manbaviy bazasi” nomli tarix fanlari bo‘yicha dissertatsiyasining birinchi bobi Rizouddin ibn Faxriddin hayoti va ilmiy salohiyati tahlil qilinib, uning olim sifatida shakllanishiga ta‘sir etgan omillar hamda tarixiy-biografik asarlarining ta‘siri ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, tadqiqotda “Asar”ning bibliografik asoslari, olimning material to‘plash va tanlash metodologiyasini, shuningdek, tarixiy tadqiq va tadqiqot uslubini ochib berishga imkon beruvchi ma‘lumotlar yoritilgan [14:45].

Yana bir tatar olimi A.A.Karabullin “Rizouddin Ibn Faxriddin va Zaynulla Rasulev tasavvufni tushunish muammosi” nomli maqolasida Rizouddin Ibn Faxriddin va Zaynulla Rasulevlarning tasavvuf haqidagi qarashlarini qiyosiy o‘rgangan. Muallif maqolada Rizouddin ibn Faxriddin “Din va ijtimoiy masalalar” nomli kitobida tasavvufni tanqid qilganini aytib o‘tgan. Biroq boshqa tomondan, olim tasavvuf namoyondalari bo‘lmish Imom G‘azzoliy va Ibn Arabiyga bag‘ishlangan asarlar yozganini ham e‘tirof etgan. Karabullin maqolada yana bir e‘tibor qaratgan jihat shuki, olim ayol sufiylarni qattiq tanqid ostiga olgani va ularni ezoteriklikda ayblaganini ochib bergan [15:203-211].

Tarix fanlari doktori Xabutdinov Aydar Yurevich “Rizouddin ibn Faxriddin va uning Rossiya siyosiy va huquqiy tizimi modeli haqidagi fikrlari” nomli maqolasining ilk qismida olimning “Orenburg Muhammad ruhoniylar assambelyasi”dagi faoliyati tahlili bilan boshlangan. Xabutdinov Aydar Yurevich Rizouddin ibn Faxriddin 1905-yilda mazkur assambleyani reformatsiya qilish to‘g‘risidagi loyihasini taqdim qilgani, xususan, uning muqaddimasida: “Rossiya musulmonlarining diniy ishlari ularning ma‘naviy boshqaruvi yurisdiksiyasidir” haqidagi to‘liq ma‘lumotlarni ochib bergan. Shuningdek, maqolada Rizouddinning fihiy asarlari va Rossiya imperiyasi ikki palatali parlamentiga qonun loyihalarini kiritgani haqida yozilgan [16:26]. Yana bir eng muhim jihati shundaki, Rizouddin ibn Faxriddin nafaqat Tatariston musulmonlari, balki Rossiya imperiyasi hududidagi barcha musulmonlar nomidan loyiha tayyorlagan ilk taraqqiyparvar bo‘lgan. Uning asosiy maqsadi dini davlatdan ajratish va vijdon erkinligini to‘laqonli ta‘minlash edi.

Professor Yunusova Aysulu Bilalovna “Rizouddin ibn Faxriddinning bolsheviklar Rossiyasida diniy-aqidaviy ta‘limotni saqlab qolish borasidagi faoliyati” nomli maqolasida olimning Rossiya imperiyasi hududidagi ezilgan va zulm ostida qolgan musulmonlarga diniy erkinlik berishini va musulmonlar mustamlakachilik imperiyani o‘zlarining dushmani deb bilishi haqidagi loyihasi tahlil qilingan. Muallif olimning 1923-yil 26-martda Butun Rossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumiga islom dinining tarixi va hozirgi mavqeini oydinlashtirish mazmunidagi xati va shu boradagi say-harakatlari bilan Rossiya imperiyasi 1923-yil oktyabr oyida musulmon aholining tinchligini o‘ylab ularga islom dinini o‘qitishga ruxsat berishi haqida qaror qabul qilganligi ochib berilgan [17:12-16].

Tarix fanlari nomzodi Gatin Askar Aleksandrovich “Rizouddin ibn Faxriddin va Fotih Karimiy “Sho‘ro” jurnalining tashkil etilishi masalasida” deb nomlangan maqolasi ham Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy faoliyatiga oid muhim ilmiy ma‘lumotlarni jamlaydi. Muallif maqolaning avvalida, olimning “Sho‘ro” jurnalidagi faoliyatiga tarixshunoslik asoslariga e‘tibor qaratgan. Gatin Askar “Sho‘ro” jurnali haqida tarixchilar tomonidan, jurnal faoliyati va maqolalar turkumiga bag‘ishlangan ko‘plab monografiyalar, yuzdan ortiq ilmiy maqolalar yozilgan bo‘lsa-da, jurnalning paydo bo‘lishi haqida haligacha tadqiqotlar yetarli emas deb baholagan. Shu bilan birgalikda, maqolada Fotih Karimiy Rizouddin ibn Faxriddinga yuborgan xatida, olimning Orenburgga kelishidan xursandligi “Vaqt” gazetasining davomchisi sifatida bir jurnal tashkil qilish haqidagi taklifi yoritilgan hamda “Sho‘ro” jurnaliga “Vaqt” gazetasi asos solgan degan xulosaga kelingan [18:17-21].

Ural davlat universiteti tadqiqotchilaridan biri Isxakof Rafail Lutfulloevning "Musulmon bosma nashri va inson huquqlari" nomli maqolasida Rizouddin ibn Faxriddinning 1906-1908-yillarda "Vaqt" gazetasida yordamchi muharrir, 1908-1918-yillarda "Sho'ro" jurnalida bosh muharrir sifatida faoliyat olib borganligi ochib berilgan [19:21-27].

Tarix instituti ilmiy xodimi Xusainov Salavat Mirsadirovich "Rizouddin ibn Faxriddin dunyoning asosiy dinlari haqida" nomli ilmiy maqolasi Rizouddin nafaqat islom ilmlari bilimdoni, balki dinshunos sifatida ochib berishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Xusainov Salavat Mirsadirovich olimning Tatariston ilmiy arxivida saqlanayotgan "Yuanich" (Tasalli) qo'lyozma to'plamini tadqiqotga jalb qilgan. Ushbu qo'lyozmada, Rizouddin ibn Faxriddin dunyo dinlari – buddizm, hinduizlik, xristianlik, konfutsiylik, islom va yahudiylik haqida fikr yuritadi. Muallif olimning mazkur nazariyalari bilan islom dini bunyodkorlik dini ekani, barcha dinlardan afzalligi hamda turklar madaniyati va tarixi ushbu din bilan bog'liqligini ochib bergan [20:117-121].

Pedagogika fanlari nomzodi Kalamullin Rinat Xadimovich "Rizouddin ibn Faxriddinning pedagogikasi" deb atalgan maqolasida olimning pedagogikaga oid "Tarbiyali ona", "Tarbiyali bola", "Tarbiyali ota", "Shogirdlik odobi" kabi asarlariga murojaat qiladi. Kalamullin Rinat Xadimovich maqolada yoshlarning ma'naviy fazilatlarini inqirozga uchrayotgani, ichkilikbozlik, giyohvandlik, yengil hayotga intilish kuchli bo'lgan holatda ajdodlar merosiga asoslanib, ularni tarbiyalashni muhim deb hisoblaydi. Ayniqsa, Kalamullin Rinat Xadimovich olimning axloqiy asarlaridagi ko'tarilgan masalalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va bolalarni tarbiyalashda yorqin namuna bo'la oladi, deb xulosa qilgan [21:126-129].

Raif Mardonof, Ramil Minnullin, Sulaymon Rahimovlar tomonidan "Rizouddin Faxriddinov: ilmiy biografik to'plam" [22:46]. deb nomlangan monografiyasi olimning 140-yillik yubileyiga bag'ishlangan. Kitob Rizouddin ibn Faxriddinning "Tarjimai holim" nomli qo'lyozma asari asosida yozilgan. Qo'lyozma 1905-yil 27-sentyabrda yozib tugallangan bo'lib, so'z boshi, nasl-nasabi, tug'ilishi, bolalik xotiralari, ta'limi, o'qigan kitoblari, ustozlari, yozgan kitoblariga doir ma'lumotlarni qamrab olgan. Ushbu monografiya olimning hayoti hamda ilmiy faoliyatini o'zi tomonidan yozganligi, unda yanglish yoki xato materiallarning yo'qligi bilan boshqa manbalardan ajralib turadi [23:224].

Tatariston Respublikasi fanlar akademiyasining G.Ibragimova nomidagi til, adabiyot va san'at institutining "Tatar adabiyoti tili tarixi (XIII-XX asrlar boshlari)" nomli monografiyasida Rizouddin ibn Faxriddinning yozgan barcha asarlaridagi til xususiyatlari, xususan, olimning kitoblarida "t" va "d" bilan boshlanadigan fe'llar tahlil qilinib, ushbu so'zlar aholining nutqida ko'p uchraydigan xususiyatlardan biri, deb baholangan [24:696].

Tarix fanlari nomzodi Farxshatov Marsil Nurullovich "1926-yil Musulmonlarning butun jahon kongressida Sovet delegatsiyasining diplomatik missiyasi" nomli maqolasida olimning ushbu kongressda vitse-prezidentlik qilgani, butun musulmon olimlari, jumladan: Turkiya, Boshqirdiston, Turkistonlik ilm ahli bilan uchrashib fikr almashgani, ayniqsa, Makka va Madinaning boy kutubxonalarini ziyorat qilib, u yerdagi kitoblardan bahramand bo'lgani haqidagi ma'lumotlar tadqiq qilingan [25:19-27].

Yana bir tatar olimlaridan I.K.Zagudillinning "Rizouddin ibn Faxriddin: musulmon tatarlarning ijtimoiy rivojlanishida diniy va madaniy muassasalarning roli (1905-loyiha)" deb nomlangan maqolasi olimning 1905-yil 10-15-aprelda Ufa shahrida bo'lib o'tgan ulamolar majlisida muhokamaga qo'yilgan "Musulmonlarning ma'naviy ishlarini boshqarishni isloh qilish" loyihasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Qurultoyning yakuniy hujjatiga mazkur loyiha asos qilib olingan. Orenburg Muhammad Ruhoniylar Assambleyasi nizomi tomonidan loyiha bo'limlarining asosiy qoidalari ko'rib chiqilgan. Maqolada muallif olimning musulmon jamiyatini modernizatsiya qilish bo'yicha yangi g'oyalari yoritilgan bo'lib, unda yangilangan boshqaruv tizimi va islom institutlari, jumladan, ta'lim muassasalarini isloh qilish muhim o'rin tutganligi yoritib berilgan [26:5-28].

Tatar tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning asosiy xususiyati shundaki ular da Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosi tarixiylik metodi orqali tadqiq qilingan. Yuqoridagi tadqiqotlarda olim yaratgan ilmiy-ijodiy maktab tatar xalqining milliy g'ururi,

20 madaniy merosi va islohotchi sifatida talqin qilinganini ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda, Rizouddin ibn Faxriddin faoliyatiga bog'liq bo'lgan kitob, monografiya, dissertatsiya, o'quv qo'llanma hamda ilmiy maqolalarning qiymatini tushirmasdan shuni aytish joizki, olimning "Kutubi sitta va mualliflari" asari hamda hadisshunoslik borasida qilgan ishlari hali ham to'laonli tadqiqot sifatida ilmiy ishga tortilmagan degan xulosaga kelinadi.

Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, Rizouddinning merosi O'zbekiston ilmiy muhitida ham o'z o'rniga egadir. Jumladan, Rizouddin ibn Faxriddinning "Ta'lim odobi" [27] asari T.Ziyoyev, "Ahlu ayol" [28] kitobi I.Karimov, "Javome ul-kalim" [29] asari Abdulloh qori Xisomiddin Xo'ja o'g'li va A.Nabiyev, "Mashhur xotinlar" [30] M.Eshmuhammedova, "Muhammad alayhissalom" [31] kitobi S.Xasanovlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Rizouddin ibn Faxriddin XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi xalqni ilmiy qilish maslagi bilan o'z oldiga oliy maqsadni qo'yib qalam tebratdi. Olimning ilmiy merosi tarixnavisligi uch guruhga: Turkiya, Tatariston va O'zbekiston olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar misolida tahlil qilindi. Yuqoridagi ma'lumotlar tasnif qilinib o'rganilganda shu narsa ko'rinadiki, ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni o'zida mujassam qilgan ma'rifatparvar Rizouddin ibn Faxriddinning merosi haligacha to'laonli o'rganilmagan hamda asarlari tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan ilmiy istifodaga kiritilmagan deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Omer Hakan Ozlep. Kazan la Istanbul Arasinda Bir Alim Rizaeddin Bin Fahreddin. – Istanbul: Dergah Yayinlari, 2010. 254 s
2. Doç. Dr. İsmail Türkoğlu. Rızaeddin Fahreddin ve Türk Kimliği. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 12-22 s
3. Yard. Doç. Dr. Alper Alp. Rızaeddin Fahreddin'in Tarihçiliği. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 23-36 s
4. Ömer Hakan Özalp. Rızaeddin Bin Fahreddin'in Dinî ve İctimaî Meseleler Kitabı. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 199-234 s.
5. Recep Chelik. Rusya cedid hareketi ve Rizaeddin B. Fahreddin'in fikh anlayışı. – Ankara: Mayıs, 2022. 186 s.
6. Yard. Doç. Dr. Metin Demirci. İdil-Ural BölGESi Müslümanlarının Meşhur Müftüsü Rızaeddin Fahreddin'in Edebi Eserlerinin Dili. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 37-130.
7. Prof. Dr. Mehmet Hayri Kırbaşoğlu. Rızaeddin Bin Fahreddin: Akıl İle Kalbi Birleştiren Adam. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 131-174
8. Prof. Dr. Bünyamin Erul. Rızâeddin b. Fahreddin'de (1859-1936) hadis yorumu. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 175-198 s.
9. Yard. Doç. Dr. Turgay Anar. Rızaeddin Fahreddin'in "Hace-i Evvel" Ahmet Midhat Efendi'yle İlgilenmesinin Sebepleri. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 235-248 s
10. Özkan ÖZTÜRK. İdil-Ural Âlimlerinden Rızâeddîn bin Fahreddîn'in (1859–1936) İbn Arabî Değerlendirmesi. Tasavvur ilahiyat dergisi. – Tekirdag': 2020 aralık. 657-700 s
11. Marat Kashafutdinov. Rızaeddin b. Fahreddin'in Hadis Şerhçiliği. Yüksek Lisans Tezi. – Ankara: 2012. 126 s
12. İlyas Miftakhov. XX. Yüzyılda Kazan BölGESi'nde Tarih Yazıcılığı. Yüksek lisans tezi. – Ankara: 2011. 134 s.
13. Т.Э. Петрова, Р.Р. Замалетдинов, Р.М. Мухаметшин. История мусульманской мысли в Волго-Уральском регионе. Учебное пособие // – Казан: Издательство ДУМ РТ, 2009.
14. Байбулатова Лилия Фаритовна. Источниковая база биобиблиографического свода «Асар» Р.Фахреддина. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Казан – 2004.

15. Карабуллин. А.А. Ризаэтдин Фахретдин и Зайнулла Расулев: к проблеме осмысления суфизма. – Минбар: Исламские исследования, 2013. Т. 6. Н. 2. 203-211.
16. Хабутдинов Айдар Юревич. Риза Фахретдин и его идеи о модели политико-правовой стройки России. Фахретдиновские чтения. Сборник материалов III Всероссийской научно-практической конференции // под ред. Д. В. Мухетдинова. М.: ИД Медина, 2017. 26 с.
17. Юнусова Айсулу Билаловна. **Деятельность Ризы Фахретдинова по сохранению преподавания религиозного вероучения в большевистской России.** Первые Фахретдиновские чтения. – Москва: Издательский дом Медина, 2009. 12-16 с.
18. Гатин Аскар Александрович. **Ризаэтдин Фахретдинов и Фатих Карими: к вопросу о появлении журнала “Шура”.** Первые Фахретдиновские чтения. – Москва: Издательский дом Медина, 2009. 17-21 с.
19. Исхаков Рафаиль Лутфуллович. **Мусульманская печать и права человека.** Первые Фахретдиновские чтения. – Москва: Издательский дом Медина, 2009. 21-27 с.
20. Хусаинов Салават Мирсаидович. **Риза Фахретдинов об основных религиях мира.** Первые Фахретдиновские чтения. – Москва: Издательский дом Медина, 2009. 117-121 с.
21. **Каламуллин Р.Х. Педагогика Ризаэтдина Фахретдинова.** Первые Фахретдиновские чтения. – Москва: Издательский дом Медина, 2009. 126-129 с.
22. Мардоноф Р. Миннуллин Р. Рахимов С. Ризаэтдин Фахретдин: Фэнни-биографический очерк. – Казан: Рухият, 1999. 22-46 с.
23. Мардоноф Р. Миннуллин Р. Рахимов С. Ризаэтдин Фахретдин: Фэнни-биографический очерк. – Казан: Рухият, 1999. 224 б.
24. Татар әдәби теле тарихы (XIII гасыр – XX йөз башы) / И.Б. Бәширова, Ф.Ш. Нуриева, Э.Х. Кадыйрова; фэнни ред. Ф.М. Хисамова. – Казан: ТӘҺСИ, 2015. – И т.: Фонетика. Графика: язма традицияләре, норма һәм вариантлылык. – 696 б.
25. Фархшатов М.Н. Дипломатическая миссия Советской делегации на Всемирном Конгрессе Мусульман 1926 г. Проблемы востоковедения. 2019/4. 19-27.
26. Загудиллин И.К. Р.Фахретдин о роли религиозно-культурных институтов в общественном развитии татар-мусульман (проект 1905 г.). Из истории и культуры народов Среднего Поволжья. 2018. № 8. Т. 1. 5-28 б.
27. Rizouddin ibn Faxriddin. Ta'lim odobi (nashrga tayyorlovchi va tarjimon Teshavoy Ziyoyev). Sharq yulduzi jurnali. 1994. 3-4-sonlar. –Т.: G'ofur G'ulom, 1994. – 184 б.
28. Rizouddin ibn Faxriddin. Ahlu ayol. (Noshir Ilhomjon Karimov) –Т.: Cho'lpon, 1994. – 20 б.
29. Rizouddin ibn Faxriddin. Javome al-kalim. (Nashrga tayyorlovchi va tarjimonlar: Abdulloh qori Xisomiddin Xo'ja o'g'li va Abdushukur Nabiyeu) –Т.: Movarounnahr, 2004. – 158 б.
30. Rizouddin ibn Faxriddin. Mashhur Xotinlar. (Tarjimon va so'zboshi muallifi Eshmuhammedova M). – Т.: Navro'z, 2019. – 302 б.
31. Rizouddin ibn Faxriddin. Muhammad alayhissalom. (Tarjimon va so'zboshi muallifi Said Hasanov). – Т.: Ijod, 1991. – 27 б.